

## QADIMGI TURKIY YOZUVLAR VA LOTIN ALIFBOSINING QIYOSIY-GRAFIK TAHLILI

Ravshanova Madina Zafarjon qizi

University of Business and Science

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

ravshanovamadinabonu05@gmail.com

Namangan, O‘zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20484716>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qadimgi turkiy yozuvlar (O‘rxun-Yenisey) hamda lotin alifbosi o‘rtasidagi grafik o‘xshashliklar va ularning shakllanish tarixi qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida turkiy run yozuvlarining o‘qilish tarixi, Vilgelm Tomsenning kashfiyotlari va yozuv tizimlarining evolyutsiyasi ko‘rib chiqilgan. Maqolaning asosiy yangiligi — turli yozuv tizimlaridagi ayrim harflarning (D, X, Y, I, M) tashqi ko‘rinish jihatidan o‘xshashligini aniqlash va ularning fonetik xususiyatlarini qiyoslashdan iborat. Xulosada yozuvlar o‘rtasidagi bog‘liqliklar tarixiy-madaniy kontekstda yoritilgan.

**Tayanch so‘zlar:** O‘rxun-Yenisey yozuvi, lotin alifbosi, turkiy runlar, Vilgelm Tomsen, qiyosiy tilshunoslik, grafik o‘xshashlik, fonetika, bitiktoshlar.

**Abstract:** This article provides a comparative analysis of the graphic similarities between Ancient Turkic scripts (Orkhon-Yenisei) and the Latin alphabet. The research examines the history of Turkic runic inscriptions, the decipherment by Vilhelm Thomsen, and the evolutionary stages of these writing systems. The core of the study identifies visual parallels between specific characters (D, X, Y, I, M) in both scripts and compares their phonetic functions. The findings suggest that while these scripts belong to different linguistic families, their graphic structures exhibit remarkable typological similarities.

**Keywords:** Orkhon-Yenisei script, Latin alphabet, Turkic runes, Vilhelm Thomsen, comparative linguistics, graphic similarity, phonetics, inscriptions.

Til insoniyat jamiyatining eng muhim ijtimoiy hodisalaridan biri bo‘lib, uning shakllanishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbek tili ham uzoq tarixiy jarayon natijasida shakllangan bo‘lib, u turkiy tillar oilasiga mansub qadimgi til qatlamlariga borib taqaladi. O‘zbek tilining tarixi bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi va har bir bosqich tilning leksik, fonetik va grammatik jihatdan rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. O‘zbek tilining ildizlari qadimgi turkiy tilga borib taqaladi. Qadimgi turkiy til milodiy VI–VIII asrlarda Markaziy Osiyo hududida yashagan turkiy qabilalar tilini o‘z ichiga oladi. Bu davrga oid yozma manbalar sifatida O‘rxun-Enasoy bitiklari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularda turkiy xalqlarning tili, madaniyati va dunyoqarashi aks etgan. Turkiy xalqlar tarixida alohida ahamiyatga ega yozuvlardan biri O‘rxun–Yenisey yozuvi hisoblanadi. Bu yozuv runiy yozuv deb ham ataladi. “Run” so‘zi “sirli” yoki “maxfiy” degan ma‘noni anglatadi. Ushbu yozuv yodgorliklari O‘rxun va Yenisey daryolari bo‘yidan topilganligi sababli shunday nom bilan ataladi. Bu yozuvni 1893-yilda daniyalik olim Vilgelm Tomsen o‘qishga muvaffaq bo‘lgan [1.43].

O‘rxun yozuvlari VIII asr boshlarida hozirgi Mo‘g‘iluston hududagi O‘rxun vodiysida eski turkiy alifboda yozilgan Ko‘k turklar tomonidan o‘rnatilgan ikkita yodgorlik inshootlari. Ular ikki turkiy shahzodalar Kultegin va uning ukasi Bilge xoqon sharafiga qo‘yilgan [2.1]. Yozuv insoniyat tarixidagi eng buyuk ixtirolardan biri hisoblanadi. Insoniyat o‘z fikrini ifodalash uchun dastlab og‘zaki nutqdan foydalangan. Biroq vaqt o‘tishi bilan bilimlarni saqlab qolish, voqealarni yozib

qoldirish va ularni uzoq masofalarga yetkazish zarurati paydo bo'ldi. Natijada yozuv tizimi shakllandi. Yozuv tufayli insoniyat ming yillar oldin sodir bo'lgan voqealar, tarixiy shaxslar va ilmiy kashfiyotlar haqida ma'lumotga ega bo'la oldi. O'rxun yozuvi shunchalik rivojlangan ediki, ularning alohida alifbolari ham bo'lgan.

word separator		Vowels	
o \ :	word separator	ö/ü	[o/y]
o \ :	word separator	o/u	[o/u]
o \ :	word separator	u/i	[u/i]
o \ :	word separator	a/e	[a/e]
o \ :	word separator	Consonants with back vowels	
o \ :	word separator	g	[g]
o \ :	word separator	d	[d]
o \ :	word separator	b	[b]
o \ :	word separator	j	[j]
o \ :	word separator	t	[t]
o \ :	word separator	s	[s]
o \ :	word separator	Consonants with front vowels	
o \ :	word separator	g	[g]
o \ :	word separator	d	[d]
o \ :	word separator	b	[b]
o \ :	word separator	j	[j]
o \ :	word separator	t	[t]
o \ :	word separator	s	[s]
o \ :	word separator	Other consonants	
o \ :	word separator	p	[p]
o \ :	word separator	m	[m]
o \ :	word separator	n	[n]
o \ :	word separator	-nt	[nt]
o \ :	word separator	-it	[it]
o \ :	word separator	-nē	[nt]
o \ :	word separator	yq/uy/q	[uq/qu/q]

Osiyo guruhiga kiruvchi o'rxun-yenisey yozuvi, asosan, VIII asrning birinchi yarmi – IX asrning boshlariga oid matnlardan iborat. Ayniqsa, uyg'ur xoqonligi davrida yenesiy yozuvlari faol qo'llana boshlanadi. Uyg'urlar dastlab o'rxun yoki yenisey yozuvidan foydalanmaganlar, balki ularning “ turk yozuvi “ nomi bilan yuritilgan yozuvlari bor edi. Bu haqda Mahmud Koshg'ariy aytib o'tgan. Qirg'izlar uyg'ur xoqonligi davrida yenisey yozuvidan foydalanganlari to'g'risida “Tan shu” nomli Xitoy yilnomasida shunday ma'lumot bor: “ularning yozuvi va tili xoyxularniki bilan o'xshash”. Chamasi, uyg'urlar Tuvada o'z hukmronligini o'rnatganlaridan keyin – VIII asrning ikkinchi yarmida yenisey yozuvlari bilan tanishganlar va uyg'ur xoqonligida bu yozuvning tarqalishi uchun ta'sir ko'rsatganlar. Shuning uchun ham Sharqiy Turkistondan topilgan turkiy-ru yozuvlari asosan, VIII asrning ikkinchi yarmiga oiddir[1.55]. Yenisey yozuvini ham xuddi o'rxun yozuvi kabi mukammal shakldagi alifbolari bo'lgan.

word separator		ö/ü		o/u		y/i		Vowels	
o\:		ö/ü		o/u		y/i		X\Z	
separator		[o/y]		[o/u]		[u/i]		a/ä	
								[a/e]	
								<b>Consonants with back vowels</b>	
r		n		i		g		d	
[r]		[n]		[i]		[ɣ]		[d]	
		↑		q		j		t	
		[oq/uy/qo/qu/q b/np/ob/bn/po]		[q]		[j]		[t]	
								<b>Consonants with front vowels</b>	
r		n		i		g		d	
[r]		[n]		[i]		[g]		[d]	
		B		k		j		t	
		[ok/yk/ko/ky/k]		[k]		[j]		[t]	
								<b>Other consonants</b>	
iē/ē/iē		ñ		z		p		m	
[itʃ/tʃi/tʃ]		[ɲ]		[z]		[p]		[m]	
baš		ot/ut		-nt		-n		-nč	
				[nt/nd]		[n]		[ntʃ]	
								yq/qy/q	
								[ɲp/bɲ/q]	

Dunyodagi ko‘plab tillar uchun asos vazifasini bajargan til – bu lotin tili. Lotin alifbosi Qadim Rimda uncha katta bo‘lmagan Latsiy viloyatining („lotin“ so‘zi ham shundan), xususan, uning markazi Rim shahrining yozuvi, harfiy yozuv; g‘arbiy yunon yozuvi asosida paydo bo‘lgan. Miloddan avvalgi 9—8-asrlarda hozirgi Italiya hududiga kirib kelgan alifboli yunon yozuvi asta-sekin rivojlanib, faqat miloddan avvalgi 4—3-asrlardagina mustaqil Lotin alifbosi yuzaga kelgan. Ushbu yozuvdagi eng qad. yodgorliklarda (miloddan avvalgi 6—4-asrlar) yozuv yo‘nalishi ham o‘ngdan chapga, ham chapdan Lotin alifbosi o‘ngga bo‘lgan, miloddan avvalgi 4-asrdan keyingina chapdan o‘ngga qarab yozish barqarorlashgan. Bu davrdagi yozuvda tinish belgilari bo‘lmagan, harflar bosh (katta) va kichik harflarga ajratilmagan. Lotin alifbosida dastlab 20 ta harf bo‘lgan, miloddan avvalgi 1-asrdan boshlab yunon tilidan kirgan so‘zlarni yozish uchun Y, Z harflari qo‘llana boshlagan. Ushbu alifbo o‘rta asrlarda ko‘plab shakl o‘zgarishlariga uchragan xrla rivojlanishda davom etadi. 11 -a.da W harfi, 16-asrda xa J va V harflari alifboga kiritiladi. Keyingi rivojlanish davrida, kitov bosish ishlari yo‘lga qo‘yilganidan keyin, tinish belgilari, diakritik belgilar paydo bo‘ldi, bosh va kichik harflar farqlana boshlandi [3].

Ā Ā Â Ā Ā Ā Æ Ç Ð Ē Ę Ğ Ğ Î Ñ Ò Ó Ø Œ ß Ţ Ŧ Ũ Ū Ŷ ŷ

Bu uchala alifboda ham bir-biriga o‘xshash harflar mavjud. Birinchi lotin yozuvi bilan o‘rxun yozuvidagi harflarning bir xil jihatlar:

O‘rxun yozuvidagi D, X, Y, I, M harflari lotin yozuvidagi harflar bilan yozilishi bir xil, lekin aynan ular yozilganidek, o‘qilmagan. D harfi J tovushini, X harfi D ni, Y harfi L ni, I harfi S ni, M harfi esa -lt tovushlarini ifodalagan. Xuddi shunday o‘xshashlik lotin yozuvi va yenisey yozuvlarida ham bor. Bular yenisey yozuvidagi V, O, X, P, B, I, M harflaridir. Lekin bu hafrlar ham boshqa tovushlarni ifodalagan: V–L, O–J, X–D, P–J, B–OK, UK, I–S, M–Lt.

Insoniyat sivilizatsiyasi davomida yozuv tizimlari doimiy evolyutsiyani boshdan kechirgan. Maqolada tahlil qilinganidek, lotin va turkiy run yozuvlarining shakllanishi turli geografik hududlarda kechgan bo‘lsa-da, ularning ijtimoiy-madaniy vazifasi va axborotni saqlashga bo‘lgan ehtiyoji bir xil asosga ega. Tadqiqot davomida aniqlangan D, X, Y, I, M kabi harflarning grafik

o'xshashligi shuni ko'rsatadiki, inson tafakkuri geometrik shakllar va chiziqlar yordamida tovushlarni ifodalashda o'xshash tamoyillarga tayanadi. Garchi bu harflar turli tillarda turlicha fonetik qiymatga (tovushga) ega bo'lsa-da, ularning chizilishi va tuzilishi o'rtasidagi tipologik yaqinlik mavjud. Vilgelm Tomsen kashfiyotlaridan boshlangan turkiy yozuvlarni o'rganish jarayoni bugungi kunda lotin alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'rxun yozuvi shunchaki tarixiy yodgorlik emas, balki turkiy xalqlar madaniyatining yuqori darajada rivojlanganligini ko'rsatuvchi murakkab va mukammal tizimdir. Maqolada keltirilgan qiyosiy tahlillar kelajakda turkiy tillarning grafik manbalarini chuqurroq o'rganish va jahon yozuv tizimlari tarixi bilan bog'liqligini yanada kengroq yoritish uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, har uchala alifboning (O'rxun, Yenisey va Lotin) ba'zi ildizlari va grafik shakllari bir-biriga ulanib ketishi insoniyat yozuv madaniyatining umumiy qonuniyatlarga egaligidan dalolat beradi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Rahmonov.N, Sodiqov.Q. O'zbek tili tarixi. – Toshkent, 2009.222 B
2. O'rxun yozuvlari - Vikipediya
3. Lotin alifbosi - Vikipediya